



BOLANING JAMIYATGA MOSLASHUVIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Umida Fayzullaeva

Namangan davlat universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7512259>

ARTICLE INFO

Received: 26th December 2022

Accepted: 06th January 2023

Online: 07th January 2023

KEY WORDS

Jamiyat; moslashuvi; ijtimoiy jamiyat; ijtimoiylashuv; ijtimoiy xulq-atvor, ijtimoiy rivojlanish; ijtimoiy me'yorlar.

ABSTRACT

Maqolada bolaning jamiyatga moslashuvining o'ziga xos xususiyatlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola ijtimoiylashuvining pedagogik imkoniyatlari haqida so'z yuritilgan.

Mamlakatimizda demokratik, fuqarolik, huquqiy, dunyoviy jamiyatni barpo etish maqsadida keng ko'lamdagi islohotlar olib borilmoqda. Shuning uchun ham davlatimiz va Hukumat tomonidan jamiyat taraqqiyotining asosiy muammosi fuqarolarni, xususan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirish va boyitish, ularni mustaqillikni mustahkamlash ruhida tarbiyalash, o'zbek xalqining boy madaniy va ma'naviy merosi, qadriyatlarini, an'analarini va urf-odatlarini egallashlari uchun sharoitlar yaratilmoqda.

Jamiyat (arab. umumiy) – tabiatning bir qismi, borliqning alohida shaklini ifodalaydigan falsafiy tushuncha, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan ko'plab munosabatlar majmuasi, o'zida moddiylik va ma'naviylikni, ob'ektivlik va sub'ektivlikni, tabiiylik va ijtimoiylikni mujassamlashtiradigan tushuncha[6].

Jamiyat g'oyat murakkab ijtimoiy tizim bo'lib, u odamlar o'rtasidagi amal qiladigan ahloqiy, diniy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy va hokazo munosabatlarning, tarixan tarkib topgan oila, jamoa, millat, din, davlat, ahloq va hokazolarning majmuidir.

Sotsiologiya tarixda jamiyat – o'z ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi kishilar birligi sifatida tushunilgan. Shu bilan birga, jamiyat ayrim ijtimoiy birligini emas, balki ijtimoiy munosabatlar majmuasi hamdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida shunday fikrlar bildirildi: «Biz Yangi O'zbekistonni «ijtimoiy davlat» tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoit yaratish, kambag'allikni qisqartirish demakdir.

Ijtimoiy davlatni bugungi yoshlar barpo etishadi, shuning uchun ularning hayoti va faoliyatini «yangi» jamiyatga uyg'unlashtirish hamda moslashtirish dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilishi zarur.



Bolaning jamiyatga kirib kelishi maktabgacha ta'lim davridan boshlanadi. Shung ushun ham mamlakatimizda bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olishlari uchun juda katta imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Bu borada olib borilayotgan islohotlar samarasi va istiqboldagi vaziflar xususida yurtboshimiz so'z yuritib, so'nggi olti yilda bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish darajasi 27 foizdan 70 foizga etishi natijasida bugungi kunda 2 millionga yaqin bola bo'chaga borayotganligi, yaqinda Toshkent shahrida o'tkazilgan YUNESKOning Maktabgacha ta'lim bo'yicha Umumjahon anjumanida bu islohotlarning yuksak e'tirof etilganligini alohida ta'kidlab o'tdilar.

Shu bilan birga, kelgusi besh yilda qamrovni 80 foizga etkazish uchun 600 ming yangi bog'cha kerak. Bu - juda katta marra. Shu bois, bog'chalar sonini ko'paytirish, ulardagi ta'lim va tarbiya sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha besh yillik jastur qabul qilinadi. Bog'cha qamrovini kengaytirish bo'yicha xususiy sektorga qo'shimcha sharoitlar yaratiladi[1].

Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlarda ko'rsatib o'tilgan vazifalarni amalga oshirilishi natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish orqali bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish, bolaning kelgusida o'zini o'zi muvaffaqiyatni namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishga erishilmoqda[2].

Ma'lumki, bolaning jamiyatga moslashuvi kelgusi hayotini to'la to'kis tashkil etishi uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishni taqozo etadi. Bu malaka va ko'nikmalarni bola ijtimoiylashuv jarayonida egallab boradi. Ijtimoiylashuv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari falsafa, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika sohalari tomonidan o'rganiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jamiyatga moslashuvi oiladan boshlanadi, va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davom etadigan uzluksiz jarayon hisoblanadi. Oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning ijtimoiylashuvi hayotiy faoliyati shartlari asosida ro'y beradi, mazkur jarayon bolaning madaniy ko'nikmalarni egallashi, ta'lim va tarbiya, shuningdek, ijtimoiy hayotda ishtiroki bilan amalga oshadi.

Muallif G.Toxirovaning ta'kidlashicha, ijtimoiylashuvi va shakllanishi maqsadga yo'naltirilgan sharoitlarda o'zaro ta'sir ko'rsatish, muhitning bevosita ta'siri, stixiyali va uyushmaganlik elementlarida ko'rinadi.

Ijtimoiylashuvning muvaffaqiyati kechishi xulq-atvorning o'zgarishi va jamiyat talablariga rioya etish bilan bog'liq bo'lib, individ ijtimoiy sifatlar orqali shaxsiy tajribani kashf qiladi [7].

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning dastlabki ijtimoiy me'yorlarni qabul qilish va o'zlashtirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu quyidagi maqsad va vazifalarda ham o'z ifodasini topgan:

- bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga oid Davlat talablari asosida hamda MTT Davlat o'quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;



- maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish;
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan o'zaro hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirish[5].

Ma'lumki, jamiyat kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui bo'lib, insonlar faoliyati va ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bular sirasiga ishlab chiqarish, oilaviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik faoliyatlar va ularga mos keluvchi munosabatlar kiradi.

Bola shaxsining ijtimoiy rivojlanishi va jamiyatga moslashib borishi masalasi o'zbek olimasi N.Egamberdiyeva tomonidan chuqur tahlil etib berildi. Uning fikriga ko'ra, bolaning ijtimoiy rivojlanishi o'zaro bog'liq bo'lgan ikki yo'nalishda olib boriladi: moslashuv (ijtimoiy madaniy tajriba, madaniyatni o'zlashtirish) hamda individuallashuv (mustaqillik, nisbatan o'ziga xoslikka ega bo'lish). Bunda ijtimoiylashuv tushunchasi inson shaxsining moslashuvi va individuallashuv jarayonlarini o'zaro bog'laydi.

Inson (bola)ning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvi yoki undan ajralib chiqishi (individuallashuvi) ijtimoiylashuv jarayonining mazmunini tashkil qiladi. Moslashish sub'ekt va ijtimoiy muhitning o'zaro faol yaqinlashuv jarayoni va natijasidir. (J. Pia Je, R. Mertoj). Ijtimoiy moslashuv esa ijtimoiy muhit talablariga insonning munosabat bildirishidir. Shunday qilib, ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudotga aylanish jarayoni va natijasidir.

Agar shaxsning jamiyatga kirishida moslashuv va individuallashuv jarayonlari o'rtasida tenglik yuzaga kelsa, insonning jamiyatga yaqinlashuvi ro'y beradi. Shu bilan birga, bunday hollarda shaxs va muhitning o'zaro ta'sir etishi ham sodir bo'ladi[8].

Jamiyatga moslashish ham tengdoshlari, ham kattalar bilan o'zaro munosabatlarni o'rnata olishni ko'zda tutadi. Maktab - avvalo, yangi ijtimoiy muhit bo'lganligi sababli, bolaning o'quvchi va jamiyat a'zosi sifatida muvaffaqiyati uning maktab sharoitiga moslasha olishi va boshqalar bilan o'zaro munosabatga kirishib ketishiga bog'liq bo'ladi. Moslashish deganda nafaqat yuzaga kelgan holatga moslashish mexanizmlari, balki bolaning mustaqil munosabatlarini o'rnata olishi ham tushuniladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning jamiyatga integratsiyalashuvi uning biologik mavjudotdan ijtimoiy sub'ektga aylanishi natijasida ro'y beradi. Bola o'z atrofidagi ijtimoiy muhit ta'sirida ijtimoiy hayotga moslasha boshlaydi. Ijtimoiy muhitda bola jamiyatga mos bilimlar, qadriyatlar, me'yorlar, xatti-harakatlar tizimini o'zlashtiradi. Maktabgacha ta'limga qamrab olinmagan bolalarda yangi ijtimoiy vaziyatlarga, muhitga yoki maktab ta'limiga moslashishda turli muammolar yuzaga keladi. Natijada bunday bolalarda o'z kuchiga ishonmaslik, begonalashuv, yangi muhit va faoliyatga kirisha olmaslik holatlari kuzatiladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda bolalarni maktabgacha ta'limga qamrovini oshirishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Ijtimoiylashuv nafaqat shaxsning jamiyatda qulayliklarga ega bo'lishini, balki shaxsning muayyan axloqiy va etnik qoidalarni egallashini ham nazarda tutadi. Shu borada oila va mahalla ijtimoiylashuvining muhim mexanizmi hisoblanadi.

Chunki unda:

- hap bir inson amal qilishi kerak bo'lgan muayyan axloqiy qonunlap ishlab turadi;



- muomala bir qator axloqiy tamoyillarga asoslanadi;
- hokimiyatga ishonch va xizmat, shaxsiy namuna kuchi, kattalarga xurmat, bolalarga g'amxo'rlik;
- axloq va jamoatchilik tarbiyasi amaliy faoliyatga kiritish orqali amalga oshiriladi;
- ommaviy ong qadriyatlari mahalladan oilaga va shaxsga uzatiladi;
- alohida shaxs hayotining asosiy bosqichlari jamoaning barcha a'zolari tomonidan ko'zatuvida bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim - maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon bo'lib, unda bolalarning rivojlanish sohalari bo'yicha bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashiladi[3].

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv bolaning bilish bilan bog'liq ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish, axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni rivojlantirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, shaxsiy ("Men" konsepsiyasi)ni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning jamiyatga moslashuvini ta'minlashda kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy ("Men" konsepsiyasini yaratish) va bilishga oid tayanch kompetensiyalari muhim rol o'ynaydi.

Yuqorida qayd etilgan tayanch kompetensiyalarni egallash jarayoni bola shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv asosida amalga oshiriladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning maqsadi - bolani o'ziga xos shakllantirish uchun zarur bo'lgan o'zini-o'zi anglash, rivojlantirish, moslashtirish boshqarish, himoya qilish, tarbiyalash mexanizmlarini kiritishdan iborat[4].

Xulosa qilib aytganda, bolaning jamiyatga moslashuvida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'rni katta bo'lib, etakchi o'rinni egallaydi.

Bugungi davr, yangilanayotgan jamiyat bolasidan aniq bilimlarga emas, fikrlash ko'nikmasi, kattalar va tengdosh o'rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun bola maktabga qadam qo'yayotganida qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashishi ko'nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va mustaqil harakat qilishi muhimroq hisoblanadi.

Bolani biror narsaga o'rgatishgina emas, unda o'z kuchiga ishonchni oshirish, o'z g'oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish hamda unda "Men" konsepsiyasini shakllantirish ham muhimdir.

References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2022 йил 20 декабрдаги Олий Мажлисга ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги "Ўзбекистон Республикаси мактабгacha таълим тизимини 2030 йилгacha ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПҚ-4312-сонли Қарори.



3. Илк ва мактабгача ёшдаги болаларнинг ривожланишига қўйиладиган давлат талаблари. Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 22 декабрдаги «Мактабгача таълим ва тарбиянинг давлат стандартини тасдиқлаш тўғрисида»ги 802-сонли қарорига 1-илова.
4. Шахсга йўналтирилган ёндашув асосида таълим жараёнини режалаштириш /Методик қўлланма/ (Биринчи нашр). Тошкент -2020 й.
5. «Илк қадам» давлат ўқув дастури /такомиллаштирилган иккинчи нашр/. Тошкент-2022 й.
6. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Т.: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2009й. – 156-бет.
7. Тохирова Г. Мактабгача ёшдаги болалар ижтимоийлашувига оид назариялар. SCIENCE AND INNOVATION. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7158482>
8. Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, Тошкент, 2009 й. -86-б.